

UDK:636.2.636.084.

**TAJRIBA GURUHIDAGI SIGIRLARNING PUSHTDORLIK
KO‘RSATKICHLARI**

O. Nomozova.

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti.

R. Pardayev.

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti.

E. Shaptakov

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti.

ABSTRACT

Experimental study of the fertility of Qora-ola cows, their service period, live weight, the period from weaning to weaning and the escape index in two groups.

Kalit so‘zlar: Servis davri, poda, tirik vazn, laktatsiyaning kechish xususiyatlari, bo‘g‘ozlik, pushtdorlik.

KIRISH

Chorva mollarini mahsulot yo‘nalishi va zotlariga ko‘ra rayonlashtirish muhim amaliy ahamiyatga ega. Bunda barcha zot va tur hayvonlari, ulardan turli tabiiy-iqtisodiy va ishlab chiqarish mintaqalari hamda tumanlarda ko‘paytirish, mahsuldorligi oshirish ishlari bajariladi. Ma’lumki har xil zotlarga mansub chorva mollarining o‘shish dinamikasi va ko‘payish davri bir xil emas. Shuni inobatga olgan holda yosh mollarni

to‘la qiymatli oziqlantirishga va asrash sharoitiga bog‘liq hisoblanadi. Podadagi sigirlarni muhim ko‘rsatkichlariga ularning pushtdorligi, laktatsiya davrining kechish xususiyatlari, tirik vazni, yoshi, servis davrining davomiyligi, bo‘g‘ozlik davri davomiyligi, birinchi qochirishdan otalanish darajasi inobatga olinadi. Qora ola zotli sigirlar va yuqori darajada sut beradigan boshqa sigirlarda tuqqandan so‘ng birinchi jinsiy kuyikish ikki oy ichida 12 foizni, yoki 3000 kg mahsulot beradigan sigirlarda tuqqandan keyin ikki oy ichida 33 foizni tashkil qilishi aniqlangan. Bundan tashqari sigirlarning dastlabki kuyga kelishiga oziqlantirish omili katta ta‘sir ko‘rsatadi.

So‘nggi yillarda mamlakatimiz rahbari va hukumatimiz tomonidan chorvachilik tarmog‘iga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu esa xalqimizning farovonligini ta‘minlashda muhim amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Tadqiqotning maqsadi. Chetdan keltirilgan va mahalliy qora-ola zotiga mansub sigirlarning pushtdorlik ko‘rsatkichlarini o‘rganish.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot bo‘yicha tajribalar qismi 2021-2023 yillar davomida Samarqand viloyati Tayloq tumanidagi “Siyob-Shavkat-Orzu” chorvachilik xo‘jaligida olib boriladi. Tajriba uchun Polsha davlatidan keltirilgan qora-ola zotiga mansub (I- guruh) va qora ola zotining O‘zbekiston xili (II- guruh) tanlab olindi.

Tajriba guruhidagi sigirlarning pushtdorlik ko‘rsatkichlari, $X \pm S_x$

Ko‘rsatkichlar	Guruhlar			
	I		II	
	$X \pm S_x$	Cv%	$X \pm S_x$	Cv%
Bo‘g‘ozlik davrining davomiyligi, kun	281,8±1,06	0,85	283,4±1,47	1,16
Servis davri davomiyligi, kun	74,9±1,61	3,60	75,7±1,63	4,62
Sutdan chiqqandan tuqqangacha bo‘lgan davr, kun	64,6±1,07	3,70	63,9±2,52	5,65
Tug‘ishlararo davr davomiyligi, kun	356,7±1,69	1,06	359,1±4,30	2,68
Tirik vazni, kg	504,3±2,12	0,94	472,0±2,42	1,15
Birinchi qochirishdan otalanish darajasi, %	80,0	X	70,0	X
Qochirish indeksi	1,25	X	1,43	X

Sigirlarning pushtdorlik xususiyati ularning sut mahsuldorligi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan muhim xususiyatlardan biri bo‘lib hisoblanadi. Olimlarning fikricha,

sigirlarning pushtdorlik xususiyatlariga ularni oziqlantirish va asrash omillari bilan birga tashqi muhit omillaridan havo harorati, namligi, quyosh nuri ham katta ta'sir qiladi. Shuning uchun ham mollarni sog'ligi va mahsuldorligini ta'minlashda bu omillardan ularni himoya qilish choralarini ham ko'rish alohida ahamiyatga ega. Sigirlarni tuqqandan keyin dastlabki 2 oy mobaynida urug'lantirish yuqori mahsuldor podalar yaratishda, podani qayta tiklash ta'sirini oshirishda va sohaning iqtisodiy samaradorligini oshirishda muhim tadbir bo'lib hisoblanadi. Tuqqandan keyin dastlabki 35-70 kun mobaynida sigirlarni otalanishi eng ma'qul muddat hisoblanadi, Sigirlar pushtdorligi birinchi qochirishdan otalanish darajasi, bir otalanishga ketgan qochirish soni (qochirish indeksi), servis va tug'ishlararo davrlar davomiyligidan tashkil topadi.

Tajribada olingan natijalar tahlil qilinganda I-guruhda servis davrining davomiyligi 74,9 kun, II-guruhda esa 75,7 kunni tashkil qilgan bo'lsa, bo'g'ozlik davrining davomiyligi o'rtacha I-guruhda 281,8 kunga, II-guruhda 283,4 kunga to'g'ri kelgan. Sutdan chiqqandan tuqqungacha bo'lgan davr guruhlarda shunga mos holda 64,6 va 63,9 kunni tashkil qildi. Tug'ishlararo davr davomiyligi I-guruh sigirlarda 356,7 kunga, II-guruhda esa bu ko'rsatkich 359,1 kunni tashkil qilgan. Tajriba guruhlaridagi sigirlarning o'rtacha tirik vazni ham bir biridan farq qildi. Xususan I-guruh sigirlari 504,3 kg ga teng bo'lgan bo'lsa, II-guruh sigirlar 472,0 kg ni tashkil qilgan. Birinchi qochirishdan otalanish darajasi guruhlarda shunga mutanosib ravishda 80,0 va 70,0 foiz bo'lgan. Qochirish indeksi 1,25 va 1,43 ga teng bo'lgan.

XULOSA

Tajriba guruhlaridagi qora-ola zotli sigirlarning pushtdorligini o'rganish orqali ularning servis davri, bo'g'ozlik davrining davomiyligi, sutdan chiqqandan tuqqungacha bo'lgan davr, tug'ishlararo davr davomiyligi, tirik vazni hamda qochirish indeksini farqini va nisbiy bir xilligini solishtirdik. Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, tajriba guruhlaridagi sigirlardan yiliga bir boshdan buzoq olish mumkinligi aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1.O‘zbekiston respublikasi prezidentining 2019-yil 28-martdagi “Veterinariya va chorvachilik sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora – tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-5696-son farmonlari mazkur sohaga doir boshqa huquqiy –me‘yoriy hujjatlari.

2.O‘zbekiston respublikasining Naslchilik to‘g‘risidagi qonuni.Toshkent 1995-yil 21-dekabr.

3. Esanov A. Golishtinlashgan qora-ola zotining pushtdorlik xususiyati. Zooveterinariya 2013 № 1. 36-b.

